

KLASSIK ARAB FILOLOGIYASI: KONNOTATSIYAVIY MA'NOLARNING ILDIZLARI

Toshqulov Maxtumquli Maxamdqulovich

Oriental universiteti Lingvistika mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada klassik arab filologiyasida konnotatsiyaviy ma'nolarning shakllanish manbalari va ularning lingvistik ildizlari tahlil qilinadi. Arab tilshunosligida so'z ma'nosining faqat lug'aviy (denotativ) qatlam bilangina cheklanmasdan, balki emotsional, baholovchi va stilistik qo'shimcha ma'nolar orqali boyib borishi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Maqolada sarf va nahv, balog'at ilmi, bayon va badiiy tasvir vositalari orqali konnotatsiyaviy ma'nolarning yuzaga kelishi masalasi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, klassik arab grammatiklari va balog'atshunoslarining asarlarida konnotatsiya hodisasiga oid qarashlar qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari konnotatsiyaviy ma'nolarning arab tilidagi semantik tizimda tutgan o'rnini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: klassik arab filologiyasi, konnotatsiya, denotatsiya, semantika, balog'at ilmi, sarf va nahv, badiiy ma'no, emotsional-ekspressiv ma'no.

Arab tilshunosligi, ayniqsa balog'a ilmi (البلاغة), konnotatsiya masalasini ming yillar avval ilmiy muhokama qilgan. Zamaxshariy, Jurjoniy, Sakkokiy, Ibn Atir, Ibn Mu'tazz kabi olimlar majāz, isti'ora, tashbīh, kinoya kabi badiiy vositalarni tahlil qilish jarayonida konnotativ ma'nolarni chuqur o'rgangan.

Arabcha misollar:

1. “فلان أسد في الحرب” “FaloH asadun fil-harb” Denotativ ma'no – “u sher. Konnotativ ma'no – “u juda jasur.”
2. “فلان طويل اليد” “Uning qo'li uzun” Konnotatsiya – “u saxiy odam”.
3. “فلان قصير اليد” – “qo'li qisqa” Konnotatsiya – “u baxil.”
4. “بياض الوجه” – yuzning oppoqligi Konnotatsiya – obro', izzat, poklik, sharaf.

Bu misollar arab tilidagi konnotatsiyalar madaniy tafakkur bilan qanday uyg'unligini ko'rsatadi.

Zamonaviy arab tilshunosligida konnotatsiya. XX asrning yirik arab olimlari — Ibrohim Anis, Abd al-Kohhar al-Jurjoniy izdoshlari, Muhammad al-Hasyimiy kabi tilshunoslar modern semasiologiya va pragmlingvistika doirasida konnotatsiyani qayta talqin qildilar.

Zamonaviy adabiyotlarda konnotatsiya:

الدلالة الإيحائية (ishora ma'nosi)

الدلالة الانفعالية (emotsional ma'no)

الدلالة الثقافية (madaniy ma'no)

kabi atamalar bilan izohlanadi.

Arab tilida konnotatsiya ko‘pincha Qur‘on tili orqali boyigan. Masalan:

“نور” (nur) — faqat yorug‘lik emas, balki hidoyat, poklik, ilohiy haqiqat konnotatsiyasiga ega.

“ظلمات” (zulumat) — qorong‘ulik, lekin konnotativ tarzda jaholat, kufr, adashish ma‘nolarini beradi.

Bu konnotatsiyalar arabning diniy-madaniy tafakkurida mustahkam o‘rnashgan.

Xulosa qilib aytganda, klassik arab filologiyasida konnotativ ma‘nolar tilning semantik tizimida muhim o‘rin tutishi aniqlanadi. Arab tilshunosligi an‘analarida so‘z ma‘nosi faqat denotativ (lug‘aviy) mazmun bilan cheklanib qolmasdan, balki nutqiy vaziyat, uslubiy kontekst hamda emotsional va baholovchi omillar ta‘sirida boyib borishi ilmiy manbalar asosida tasdiqlanadi. Sarf va nahv qoidalari, shuningdek, balog‘at ilmining ma‘oni, bayon va badiiy tasvir vositalari konnotativ ma‘nolarning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Maqolada klassik arab grammatiklari va balog‘atshunos olimlar asarlarida konnotativ ma‘nolarga doir qarashlar tahlil qilinib, ularning zamonaviy lingvistik konsepsiyalar bilan mushtarak jihatlari ochib berildi. Bu esa konnotatsiya hodisasining faqat zamonaviy tilshunoslikka xos emas, balki klassik ilmiy tafakkurda ham chuqur anglanganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot klassik arab filologiyasida konnotativ ma‘nolarning ildizlarini o‘rganish orqali tilning semantik, pragmatik va uslubiy qirralarini yanada teran anglashga xizmat qiladi hamda arab tili semantikasi bo‘yicha keyingi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy asos yaratadi.